


## SAMARQAND VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2019-yil yanvar-oktabr\*)

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi 1463,6 mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 20,3 % ga o'sdi. Shu jumladan, eksport hajmi 317,0 mln. AQSH dollarga (o'sish sur'ati 136,7 %) va import hajmi 1146,6 mln. AQSH dollari (o'sish sur'ati 116,4 %) ga yetdi. Tashqi savdo saldosi minus 829,6 mln. AQSH dollarini tashkil qildi.

### Samarqand viloyatining tashqi savdo aylanmasi (mln. AQSH dollari)



So`nggi yillarda hukumatimiz tomonidan sanoat tuzilmasini diversifikatsiya qilishni, eksportni qo'llab-quvvatlash, import o'rnini bosuvchi tovar va mahsulotlarni ishlab chiqarishni yanada oshirilishi natijasida eksport tarkibida sezilarli o'zgarishga erishildi.

\*dastlabki ma'lumot


**Samarqand viloyati tashqi savdo aylanmasida  
yuqori ulushga ega bo'lgan davlatlar**  
(2019-yil yanvar-oktabr)

(mln. AQSH dollar)

Davlat nomi	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
Xitoy	284,2	26,2	258,0	19,4	145,4
Rossiya Federatsiyasi	266,8	78,9	187,9	18,2	133,8
Qozog'iston	161,3	37,6	123,7	11,0	134,4
Turkiya	155,2	32,2	123,0	10,6	125,0
Germaniya	79,7	2,0	77,7	5,4	87,1
Yaponiya	58,5	2,5	56,1	4,0	97,0
Latviya	36,9	2,1	34,8	2,5	112,8
Koreya Respublikasi	31,6	0,9	30,7	2,2	2,2 m.
Eron	36,7	16,2	20,5	2,5	2,3 m.
Ukraina	24,2	7,8	16,4	1,7	112,6
Hindiston	19,9	0,1	19,7	1,4	86,4
Litva	16,5	1,8	14,7	1,1	109,8
Polsha	17,5	2,8	14,6	1,2	134,1
Afg'oniston	12,3	12,3	0,005	0,8	72,9
Belarussiya Respublikasi	14,7	6,6	8,1	1,0	145,0
Tojikiston	17,0	15,0	2,0	1,2	186,5
Avstriya	12,1	0,3	11,8	0,8	60,2
Gollandiya	15,5	0,1	15,4	1,1	63,0
Belgiya	10,3	0,1	10,2	0,7	77,4
Turkmaniston	15,0	4,8	10,3	1,0	2,9 m.
Vengriya	11,1	0,2	10,9	0,8	111,8
Bangladesh	11,3	0,0	11,3	0,8	107,1
Chexiya	5,4	0,6	4,8	0,4	75,7
Italiya	9,9	0,1	9,8	0,7	70,5

Samarqand viloyatining tashqi savdo aloqalarini rivojlanishi bozor islohotlarini amalga oshirish jarayonida mavjud bo'lgan milliy iqtisodiyotning real ehtiyojlari asosida amalga oshirilmoqda.

**Viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH va chet davlatlar ulushi, foizda**  
(2019-yil yanvar-oktabr)



Viloyatimizda tashqi savdoni qo'llab-quvvatlash hamda MDH davlatlari bilan ushbu sohadagi hamkorlikni yanada mustahkamlash bo'yicha olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida 2019-yil yanvar-oktabr oylarida viloyat tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 35,7 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 136,8 % ni tashkil etdi.

Boshqa xorijiy davlatlarning viloyat tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2018-yilning yanvar-oktabr oylarida 68,6 % ni tashkil qilgan bo'lsa, joriy yilning ushbu davrida esa tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 64,3 % ga yetdi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,7 % ni tashkil etdi.

## Samarqand viloyati shahar va tumanlarining tashqi savdo aylanmasi

(2019-yil yanvar-oktabr)

(mln. AQSH dollari)

Shahar va tumanlar	Tashqi savdo aylanmasi	Eksport	Import	Tashqi savdo aylanmasi	
				ulushi, %	o'zgarish sur'ati, %
<b>Jami</b>	<b>1 463,6</b>	<b>317,0</b>	<b>1 146,6</b>	<b>100,0</b>	<b>120,5</b>
Samarqand sh.					
Kattaqo'rg'on sh.	525,9	92,6	433,3	35,9	111,3
<i>Tumanlar:</i>	11,8	5,6	6,2	0,8	86,3
Bulung'ur					
Jomboy	44,5	27,0	17,5	3,0	171,8
Ishtixon	181,8	21,2	160,6	12,4	103,9
Kattaqo'rg'on	27,6	10,4	17,2	1,9	165,8
Narpay	90,3	15,4	75,0	6,2	12,9 m.
Nurobod	28,4	4,7	23,7	1,9	5,3 m.
Oqdaryo	32,0	1,1	30,8	2,2	173,4
Payariq	37,2	7,4	29,8	2,5	114,6
Pastdarg'om	17,7	7,8	9,9	1,2	2,1 m.
Paxtachi	62,8	17,9	44,8	4,3	141,1
Samarqand	12,3	3,0	9,3	0,8	52,3
Tayloq	131,4	26,5	104,9	9,0	110,8
Urgut	95,8	14,6	81,2	6,5	77,7
Qo'shrabot	135,4	39,1	96,4	9,3	124,8


Viloyat tashqi savdo aylanmasining eng yuqori o'rinlarida Samarqand shahri (525,9 mln. AQSH dollari), Jomboy (181,8 mln. AQSH dollari), Samarqand (90,3 mln. AQSH dollari), Urgut (135,4 mln. AQSH dollari) va Tayloq (95,8 mln. AQSH dollari) tumanlarini ko'rishimiz mumkin.

## EKSPORT




2019-yil yanvar-oktabr oylarida eksport hajmi 317,0 mln. AQSH dollari (o'sish sur'ati 136,7 %) ga teng bo'lib, uning tarkibida tovarlar 91,3 % ulushga ega bo'ldi. Bular asosan oziq-ovqat mahsulotlari (53,2 %), mashina va asbob-uskunalar (7,8 %), kimyo mahsulotlari (2,2 %) guruhlariga hissasiga to'g'ri kelmoqda.

### Tovar va xizmatlar eksporti tarkibi yanvar-oktabr holatiga (mln. AQSH. dollari)

2018-yil  
yanvar-oktabr



2019-yil  
yanvar-oktabr




**Eksport tarkibi**  
(2019-yil yanvar-oktabr)

	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	o'tgan yilga nisbatan, %	umumiy hajmga nisbatan, %
<b>Eksport</b>	<b>317,0</b>	<b>136,7</b>	<b>100,0</b>	<b>171,9</b>	<b>136,6</b>	<b>100,0</b>	<b>145,1</b>	<b>136,9</b>	<b>100,0</b>
Paxta tolasi	7,8	-	2,5	-	-	-	7,8	-	5,3
Oziq-ovqat mahsulotlari	168,6	149,9	53,2	87,8	146,9	51,1	80,8	153,3	55,7
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	7,0	150,4	2,2	6,3	171,5	3,7	0,7	71,3	0,5
Energiya manbaalari va mahsulotlari	6,8	613 p.	2,1	2,7	246,3 m.	1,6	4,1	0,0	2,8
Qora va rangli metallar	8,6	97,7	2,7	1,0	2,0 m.	0,5	7,6	91,5	5,3
Mashina va asbob-uskunalar	24,7	134,3	7,8	18,4	2,1 m.	10,7	6,4	65,4	4,4
Xizmatlar	27,7	91,5	8,7	9,8	83,5	5,7	17,9	96,5	12,3
Boshqalar	65,8	115,0	20,8	45,9	110,6	26,7	19,9	126,7	13,7

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida eksport qilingan tovarlar va xizmatlar tarkibining tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, tovarlar va xizmatlar tarkibida o'tgan yilning shu davriga nisbatan sezilarli o'zgarishlar qayd etildi, ayniqsa mashina va asbob-uskunalar 134,3 % ga, oziq-ovqat mahsulotlari 149,9 % ga, kimyo mahsulotlari va buyumlari ham 150,4 % ga o'sish sur'atlari kuzatildi.

### Samarqand viloyati eksportida asosiy hamkor davlatlarning ulushi



Eksport qilinayotgan tovar va xizmatlarning asosiy qismi Rossiya Federatsiyasi, Qozog'iston va Turkiya davlatlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Bu esa umumiy eksport hajmining 46,9 % ini tashkil qildi.

### Samarqand viloyatining asosiy hamkor davlatlarga amalga oshirgan eksport hajmi

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		o'sish sur'ati, %		o'rni	
	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
Rossiya Federatsiyasi	57,8	78,9	123,8	136,4	1	1
Qozog'iston	33,8	37,6	81,4	111,3	2	2
Turkiya	18,4	32,2	93,4	174,5	3	3
Xitoy	15,5	26,2	128,9	169,4	5	4
Eron	7,2	16,2	109,6	2,2 m.	8	5
Tojikiston	8,3	15,0	110,2	180,5	6	6

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		o'sish sur'ati, %		o'rni	
	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
Afg'oniston	16,9	12,3	126,0	72,9	4	7
Qirg'iziston	8,1	10,6	100,0	131,3	7	8
Ozarbayjon	6,7	9,8	177,2	146,8	9	9
Iroq	3,3	7,9	53,1	2,4 p.	15	10
Ukraina	4,1	7,8	157,7	188,8	13	11
Belarussiya Respublikasi	5,0	6,6	176,0	132,5	11	12
BAA	5,4	5,4	108,0	100,9.	10	13
Turkmaniston	1,4	4,8	75,1	3,3 m.	21	14
Polsha	0,6	2,8	2,1 m.	5,1 m.	26	15

**Samarqand viloyati shahar va tumanlarida  
amalga oshirilgan eksport hajmi  
(2019-yil yanvar-oktabr)**

Hudud nomi	mln. AQSH dollari		o'sish sur'ati, %		ulushi, %	
	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>231,9</b>	<b>317,0</b>	<b>109,9</b>	<b>136,7</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar</i>						
Samarqand	80,8	92,5	137,6	114,5	34,9	29,2
Kattaqo'rg'on	4,6	5,6	128,5	121,5	2,0	1,8
<i>tumanlar</i>						
Bulung'ur	7,3	27,0	44,7	3,7 m.	3,1	8,5
Jomboy	17,8	21,2	70,9	119,7	7,7	6,7
Ishtixon	6,3	10,5	11,4 m.	164,7	2,7	3,3
Kattaqo'rg'on	3,3	15,4	84,7	4,7 m.	1,4	4,8
Narpay	3,0	4,7	168,7	156,6	1,3	1,5
Nurobod	0,5	1,1	88,7	2,1 m.	0,2	0,4
Oqdaryo	6,9	7,4	93,7	106,8	3,0	2,3



Hudud nomi	mln. AQSH dollari		o'sish sur'ati, %		ulushi, %	
	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
Payariq	4,1	7,8	142,0	192,6	1,8	2,5
Pastdarg'om	9,3	17,9	137,1	192,1	4,0	5,7
Paxtachi	1,9	3,0	3,4 m.	152,7	0,8	0,9
Samarqand	17,7	26,5	80,8	149,8	7,6	8,4
Tayloq	14,2	14,6	169,2	102,9	6,1	4,6
Urgut	32,8	39,1	104,5	119,0	14,2	12,3
Qo'shrabot	2,4	1,3	98,2	54,9	1,0	0,4

### Meva-sabzavot mahsulotlari eksporti

*(2019-yil yanvar-oktabr)*

2019-yilning yanvar-oktabr oylarida jami 192,6 ming tonnadan ziyod meva-sabzavot mahsulotlari 129,9 mln. AQSH dollariga eksport qilindi (o'sish sur'ati 137,8 %).


Meva-sabzavot mahsulotlarining eksport tarkibiga qaraydigan bo'lsak, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida 101,7 ming tonnadan ko'proq sabzavotlar (36,1 mln. AQSH dollariga) yoki o'tgan yilning mos davriga nisbatan 46,5 ming tonnadan ko'p miqdorda eksport qilingan.

Shuningdek, 37,7 ming tonna meva va rezavorlar (37,9 mln. AQSH dollariga) eksport qilingan bo'lib, eksport hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 16,6 ming tonnaga ko'paygan.

Shuni aytib o'tish joizki, viloyatimizda eksport salohiyatini kengaytirish, yangi bozorlarni o'zlashtirish natijasida meva-sabzavot mahsulotlari, uzum, poliz, dukkakli ekinlar, shuningdek, sabzavot va mevalarni eksport qilish hajmi oshib bormoqda. Jumladan, 2019-yilning yanvar-oktabr oylarida meva-rezavorlar hamda sabzavotlar eksport hajmi 74,0 mln. AQSH dollariga yetdi (o'tgan yilning mos davriga nisbatan 30,6 % ga o'sgan).

**Meva-sabzavot mahsulotlarining tarkibi, (ming tonna)**

(2019-yil yanvar-oktabr)


**Viloyatimizda yetishtirilgan meva va sabzavot mahsulotlarining asosiy bozorlari eksport geografiyasi**


Davlat nomi	2018-yil yanvar-oktabr			2019-yil yanvar-oktabr		
	ming tonna	mln. AQSH dollari	jami tonnaga nisbatan ulushi %	ming tonna	mln. AQSH dollari	jami tonnaga nisbatan ulushi %
Turkiya	10,4	8,9	9,5	34,9	21,0	16,2
Rossiya Federatsiyasi	24,3	19,4	20,6	25,9	21,8	16,8
Qozog'iston	26,8	16,7	17,7	33,9	14,5	11,2
Xitoy	15,4	11,1	11,8	18,3	18,5	14,2
Eron	6,2	4,8	5,1	7,8	5,9	4,5
Ukraina	4,6	3,5	3,7	12,3	6,5	5,0
Belarussiya Respublikasi	4,5	4,7	5,0	6,5	5,9	4,5

Davlat nomi	2018-yil yanvar-oktabr			2019-yil yanvar-oktabr		
	Ming tonna	mln. AQSH dollari	ulushi jamiga nisbatan %	Ming tonna	mln. AQSH dollari	ulushi jamiga nisbatan %
Ozarbayjon	2,4	2,5	2,7	3,0	3,5	2,7
Iroq	2,1	2,3	2,5	9,9	6,1	4,7
BAA	2,8	2,0	2,1	3,0	3,9	3,0
Turkmaniston	2,3	1,4	1,5	13,7	3,8	2,9

## IMPORT

Joriy yilning yanvar-oktabr oylarida import hajmi 1146,6 mln. AQSH dollari (o'sish sur'ati 116,4 %) ga teng bo'ldi. Import tarkibida eng katta ulush mashina va asbob uskunalar (44,0 %), qora va rangli metallar (12,4 %), kimyo mahsulotlari va buyumlari (20,5 %) hamda oziq-ovqatlar (10,8 %) guruhlari hisobiga to'g'ri keldi.

### Tovar va xizmatlar importi tarkibi (yanvar-oktabr holatiga, mln. AQSH dollarida)



Shu bilan birga ta'kidlab o'tish kerakki, joriy yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatga import qilinayotgan tovar va xizmatlar o'tgan yilning mos davriga nisbatan 161,6 mln. AQSH dollarga ko'p import qilindi va 1146,7 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.

**Import tarkibi**  
(2019-yil yanvar-oktabr)


Tovar turlari	Jami			MDH davlatlari			Boshqa davlatlar		
	mln. AQSH dollari	Umumiy hajmga nisbatan, %	o'tgan yilga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	Umumiy hajmga nisbatan, %	o'tgan yilga nisbatan, %	mln. AQSH dollari	Umumiy hajmga nisbatan, %	o'tgan yilga nisbatan, %
<b>Jami import</b>	<b>1 146,6</b>	<b>100,0</b>	<b>116,4</b>	<b>351,4</b>	<b>100,0</b>	<b>136,9</b>	<b>795,2</b>	<b>100,0</b>	<b>109,2</b>
Oziq-ovqat mahsulotlari	124,3	10,8	95,7	84,0	23,9	107,2	40,3	5,1	78,4
Kimyo mahsulotlari va buyumlari	234,9	20,5	122,3	53,0	15,1	135,8	181,9	22,9	118,9
Energiya manbaalari mahsulotlari	9,6	0,8	184,6	9,0	2,6	195,2	0,6	0,1	99,8
Qora va rangli metallar	142,4	12,4	182,2	82,5	23,4	171,3	59,9	7,5	199,1
Mashina va asbob-uskunalar	504,2	44,0	107,2	67,5	19,2	180,6	436,8	54,9	100,9
Xizmatlar	3,1	0,3	90,8	0,05	0,0	94,2	3,0	0,4	90,7
Boshqalar	128,1	11,2	115,4	55,4	15,8	106,5	72,7	9,1	123,3

**Samarqand viloyatiga asosiy hamkor davlatlardan  
amalga oshirilgan import hajmi  
(2019-yil yanvar-oktabr)**

Davlat nomi	mln. AQSH dollari		o'sish sur'ati, %		o'rni	
	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
Xitoy	180,0	258,0	173,3	143,4	1	1
Rossiya Federatsiyasi	141,5	187,9	186,0	132,8	2	2
Qozog'iston	86,2	123,7	165,7	143,5	5	3
Turkiya	105,7	123,0	123,8	116,4	3	4
Germaniya	89,9	77,7	101,7	86,5	4	5
Yaponiya	60,2	56,1	100,1	93,2	6	6
Latviya	30,1	34,8	199,3	115,8	7	7
Koreya Respublikasi	13,6	30,7	70,2	2,3 m.	15	8
Eron	8,9	20,5	158,3	2,3 m.	21	9
Hindiston	21,7	19,7	104,7	85,4	9	10
Ukraina	17,3	16,4	145,1	94,5	12	11
Gollandiya	24,5	15,4	5,3 m.	63,0	8	12
Litva	14,8	14,7	183,9.	99,4	13	13
Polsha	12,5	14,6	98,4	117,4	18	14
Sloveniya	19,8	11,9	158,4	59,9	10	15

Samarqand viloyatiga tovar va xizmatlar importini amalga oshirgan asosiy hamkor davlatlar qatorida Xitoy 258,0 mln. AQSH dollari, Rossiya Federatsiyasi 187,9 mln. AQSH dollari, Turkiya 123,0 mln. AQSH dollari va Qozog'iston 123,7 mln. AQSH dollari bilan yuqori o'rinlarda turibdi.

### Viloyat importida asosiy hamkor davlatlarning ulushi



2019-yilning yanvar-oktabr oylarida viloyatga 76 dan ortiq xorijiy davlatlardan tovar va xizmatlar importi amalga oshirilgan. Shulardan 5 ta eng yirik bo'lgan Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston va Germaniya hamkor davlatlaridan jami import hajmi 770,3 mln. AQSH dollariga teng. Bu esa umumiy import hajmining 67,2 % ini tashkil qiladi.

### Samarqand viloyati shahar va tumanlarining amalga oshirgan import hajmi (2019-yil yanvar-oktabr)

Hudud nomi	mln. AQSH dollari		o'sish sur'ati, %		ulushi, %	
	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
<b>Samarqand viloyati</b>	<b>985,1</b>	<b>1 146,6</b>	<b>146,0</b>	<b>116,4</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar</i>						
Samarqand	391,8	433,3	149,0	110,6	39,8	37,8
Kattaqo'rg'on	9,0	6,2	2,4 m.	68,5	0,9	0,5

Hudud nomi	mln. AQSH dollari		o'sish sur'ati, %		ulushi, %	
	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr	2018-yil yanvar-oktabr	2019-yil yanvar-oktabr
<i>tumanlar</i>						
Bulung'ur	18,6	17,5	94,7	94,0	1,9	1,5
Jomboy	157,2	160,6	126,7	102,1	16,0	14,0
Ishtixon	10,3	17,1	39,4 m.	166,5	1,0	1,5
Kattaqo'rg'on	3,8	75,0	39,5	19,8 m.	0,4	6,5
Narpay	2,4	23,7	19,3 m.	11,3 m.	0,2	2,1
Nurobod	17,9	30,8	86,7	172,3	1,8	2,7
Oqdaryo	25,6	29,9	105,0	116,6	2,6	2,6
Payariq	4,4	9,9	2,4 m.	2,3 m.	0,4	0,9
Pastdarg'om	35,2	44,8	2,5 m.	127,6	3,6	3,9
Paxtachi	21,5	9,3	13,0 m.	43,3	2,2	0,8
Samarqand	100,9	104,9	151,7	104,0	10,2	9,1
Tayloq	109,1	81,2	180,7	74,4	11,1	7,1
Urgut	75,7	96,4	158,8	127,3	7,7	8,4
Qo'shrabot	0,7	0,7	19,3	97,1	0,1	0,1

Viloyatimizda tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish borasida amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar va dunyo mamlakatlari bilan olib borilayotgan mustahkam aloqalar natijasida viloyatimizning eksport salohiyati oshib bormoqda.

Shuningdek, hukumatimiz tomonidan bir qator soliq, bojxona imtiyozlarining yaratilishi, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va raqobatbardosh mahsulotlarni ishlab chiqarilishi milliy mahsulotlarimizni tashqi bozorlarda mustahkam o'rin egallashlari uchun zamin yaratmoqda.

**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi  
Tel.:66-235-65-80  
71-230-85-23**